




## Xorazm viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2020-yil yanvar-sentabr)

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
sanoat ishlab chiqarish hajmi,  
mlrd. so'm, fizik hajm indeksi, % da



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020-yilning yanvar-sentabr oylarida viloyat sanoat korxonalarini tomonidan 6656,3 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi\* 105,6 % ni tashkil etdi.


Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 95,406 % ni tashkil etdi.

### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi.

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning sanoatida – 7,4 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida - 3,5 % ga, suv bilan ta'minlash kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda 3,0 % ga o'sishi kuzatilib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida – 6,3 % ga kamayishi kuzatildi.

**\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi – ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.**

### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2,0 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,030 % ini tashkil etdi. 2020-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 6350,5 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 95,406 % ini tashkil etdi. O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida eng yuqori ulushga ega avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish 46,2 %, to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish 19,2 %, oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarish 17,5 % ni tashkil etganligini ko'rish mumkin.



**Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish ulushi - 46,2 %.**




**To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi - 19,2 %.**



**Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarish ulushi -17,5%.**



### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiva qilish sanoati




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 256,0 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,847 %) ni tashkil etdi. Shu bilan birga sanoat ishlab chiqarishning fizik indeksi 103,0 % ni tashkil qildi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 47,8 mldr.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,717 % ni) tashkil etdi.

Mazkur tarmoqda eng yuqori ulushni suv yig'ish, qayta ishslash va taqsimlash -104,9 %, chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizasiya qilish- 114,5 % tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi, %**


● Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish

### Ishlab chiqaradigan sanoati (qayta ishslash sanoati) da yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish (natura shaklda)

Sanoat mahsulotlari	2020-yil yanvar-sentabr	2019-yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
<b>Gidroelektr stansiyalari ishlab chiqargan elektr energiyasi – mln. kVts:</b>	201,3	446,3	- 245,2


**Issiqlik energiyasi – ming Gkal:** 60,7 72,1 - 11,4

Sanoat mahsulotlari	2020-yil yanvar-sentabr	2019-yil yanvar-sentabr	Farqi +/-
<b>Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillarsiz) – dona:</b>	39631,0	36836,0	2795
<b>Maxsus yengil avtomobillar – dona:</b>	6259,0	5372,0	887
<b>Aroq – ming liter:</b>	290,8	793,0	- 502,2
<b>Uzum vinosi yoki uzum turupini disterlash natijasida olingan spirt nastoykalari konyak spirtidan tashqari – ming liter:</b>	9,0	16,2	- 7,2
<b>Tarkibida 15 % dan ko‘p spirt bo‘lgan boshqa tabiiy uzum vinolari – ming liter:</b>	563,6	897,3	- 333,7
<b>Yumshoq bug‘doy va spelta uni – tonna:</b>	69644,2	59367,8	10276,4
<b>Tozalangan o‘simlik yog‘i – tonna:</b>	7576,2	10566,2	- 2990
<b>Xo‘jalik sovuni – tonna:</b>	2955,0	4670,0	- 1715
<b>Paxta tolasi – tonna:</b>	39663,0	32820,8	6842,2
<b>Paxta chigit – tonna:</b>	64187,3	51674,1	12513,2

Yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, gidroelektr stansiyalari ishlab chiqargan elektr energiyasi 245,2 mln.kVtsga, issiqlik energiyasi 11,4 ming gkalga, aroq 502,2 ming litrga, tarkibida 15 % dan ko'p spirt bo'lgan boshqa tabiiy uzum vinolari 333,7 ming litrga, tozalangan o'simlik yog'i 2990 tonnaga, xo'jalik sovuni 1715 tonnaga kamaygan.

Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobiliarsiz), yumshoq bug'doy va spelta uni, paxta tolasi, paxta chigit sezilarli darajada oshgan.

### Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da



2019-yil yanvar-sentabri oylarida o'rta-quyi texnologiyali ishlab chiqarish 5,9 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2020-yil yanvar-sentabri oylarida bu ko'rsatkich 6,8 foizga va quyi texnologiyali ishlab chiqarish 36,9 foizdan 39,4 foizga oshgan bo'lsa, o'rta-yuqori texnologiyali ishlab chiqarish 51,8 foizdan 49,1 foizga yuqori texnologiyali ishlab chiqarish 0,02 foizdan, 0,01 foizga kamayish kuzatildi.

Shuningdek, viloyat sanoatida yuqori texnologiyali tarmoqda 0,4 mlrd.so‘mlik (2019-yil yanvar-sentabr oylarida 1,0 mlrd.so‘m), o‘rtayuqori texnologiyali tarmoqda 3271,3 mlrd.so‘mlik (2994,5 mlrd.so‘m), o‘rta-quyi texnologiyali tarmoqda 454,2 mlrd.so‘mlik (342,8 mlrd.so‘m), quyi texnologiyali tarmoqda 2624,7 mlrd. so‘mlik (2135,6 mlrd.so‘m) mahsulotlar ishlab chiqarilgan.

### Xorazm viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari

<b>Shahar va tumanlar nomi</b>	<b>2020-yil yanvar-sentabr mlrd. so‘m</b>	<b>Fizik hajm indeksi, % da</b>
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>6656,3</b>	<b>105,6</b>
Urganch shahri	1239,6	94,1
Xiva shahri	107,3	107,2
<i>shundan tumanlar,</i>		
Bog‘ot tumani	216,2	100,9
Gurlan tumani	253,6	101,3
Qo‘shko‘pir tumani	115,8	108,0
Urganch tumani	287,1	107,6
Hazorasp tumani	197,7	100,8
Tuproqqal'a tumani*	3184,9	109,2
Xonqa tumani	306,2	90,2
Xiva tumani	167,9	133,3
Shovot tumani	205,2	119,8
Yangiariq tumani	186,0	130,6
Yangibozor tumani	188,8	150,2


Yuqoridagi jadval tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, Tuproqqal'a, Yangiariq, Xiva shahri, Gurlan, Qo'shko'pir, Shovot, Yangibozor, Xiva, Hazorasp, Bog'ot va Urganch tumanlari sanoati yuqori darajada rivojlangan hududlar hisoblanadi. Ushbu shahar va tumanlarda asosan avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish, kiyim ishlab chiqarish, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va qurilish materiallari ishlab chiqarish faoliyatları yuqori darajada rivojlangan.

**\*Tuproqqal'a tumani – 2020 yil aprel oyida Hazorasp tumani hududidan alohida ajralib chiqqan tuman hisoblanadi.**




## Xorazm viloyatida ishlab chiqarish hajmida hududlar sanoat mahsulotlarining ulushi, fizik hajm indeksi, % da

Shahar va tumanlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida, 2019-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, Yangibozor tumanida 150,2 %, Xiva tumanida 133,3 % Yangiariq tumanida 130,6 %, Shovot tumanida 119,8 %, Tuproqqa'l'a tumanida 109,2 %, Qo'shko'pir tumanida 108,0 %, Urganch tumanida 107,6 %, Xiva shahrida 107,2 %, Gurlan tumanida 101,3 %, Bog'ot tumanida 100,9 %, va Hazorasp tumanida 100,8 % sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada o'sishi kuzatildi.



**SANOAT ISHLAB CHIQARISH FIZIK HAJM INDEKSI**  
2019-YIL YANVAR-SENTABR OYLARIGA NISBATAN, % DA



Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushga ega Tuproqqa'l'a tumani (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 47,9 %), Urganch shahri (18,6 %), Xonqa (4,6 %), Urganch (4,3 %) hamda Gurlan (3,8 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Xiva tumani (2,5 %), Qo'shko'pir tumani (1,7 %) va Xiva shahri (1,6 %)ga to'g'ri kelmoqda.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotini ishlab chiqarish.  
(mlrd.so'm)

Iqtisodiy faoliyat turlari:	2020-yil yanvar-sentabr	2019-yil yanvar-sentabr
-----------------------------	-------------------------	-------------------------

**Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi** **6656,3** **5780,4**

<b>Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash</b>	<b>2,0</b>	<b>1,8</b>
---	------------	------------

*ulardan:*

Tog'-kon sanoatiga bog'liq boshqa faoliyat	2,0	1,8
--	-----	-----

**Qayta ishlash faoliyati** **6350,5** **5473,8**

*undan:*

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	933,9	840,7
--	-------	-------

Ichimliklar, tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	232,1	189,1
---	-------	-------

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	1281,3	937,8
---	--------	-------

Kiyim ishlab chiqarish	40,1	16,1
------------------------	------	------

Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	2,9	4,2
--	-----	-----

<b>Iqtisodiy faoliyat turlari:</b>	<b>2020-yil yanvar-sentabr</b>	<b>2019-yil yanvar-sentabr</b>
Yog‘och va po‘kak buyumlar, poxol va to‘qish uchun materilallari, ishlab chiqarish	6,1	6,9
Qog‘oz va qog‘oz mahsulotlarini ishlab chiqarish	30,7	15,2
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	1,0	1,3
Neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	0,7	0,5
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	28,1	31,5
Asosiy farmasevtika	0,1	0,6
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	38,3	36,0
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	240,1	156,8
Metallurgiya sanoati	29,7	24,4
Mashina va uskunalardan tashqari tayyor buyumlar ishlab chiqarish	135,3	109,5
Kompyuter va elektron optikali mahsulotlar ishlab chiqarish	0,3	0,4


<b>Iqtisodiy faoliyat turlari:</b>	<b>2020-yil yanvar-sentabr</b>	<b>2019-yil yanvar-sentabr</b>
Elektr uskunalar ishlab chiqarish	18,6	21,4
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	148,9	354,1
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	3075,4	2587,1
Mebel ishlab chiqarish	35,0	31,7
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	61,6	92,7
Mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish hamda tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	10,0	15,4
<b>Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash</b>	<b>256,0</b>	<b>266,9</b>
<b>Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish</b>	<b>47,8</b>	<b>37,9</b>




## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash, kichik biznes subyektlari tomonidan zamonaviy texnologiyalar olib kelinishi natijasida viloyatda 4312,1 mlrd.so'mlik xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2019-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 100,1 foizni tashkil etdi.

2020 yil yanvar-sentyabr



2019 yil yanvar-sentyabr



Oziq-ovqat mahsulotlari

Nooziq-ovqat mahsulotlari

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda oziq-ovqat mahsulotlari 969,8 mlrd.so'mni, alkogol ichimlikar 11,9 mlrd.so'mni va 3330,4 mlrd.so'mlik nooziq-ovqat mollari ishlab chiqarilib, o'tgan 2019-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan mos ravishda o'sish sur'ati 87,6 foiz, 46,3 foiz va 104,9 foizni tashkil qildi va Jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 64,8 foizni (2019 yil yanvar-sentabr oylarida 74,5 foiz) tashkil qildi.

Nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda engil sanoat mahsulotlari va kiyim ishlab chiqarish 239,8 mlrd.so'mni, avtomobil ishlab chiqarish 2625,1 mlrd.so'mni tashkil qilgan va 465,5 mlrd.so'mlik boshqa mahsulotlar ishlab chiqarilgan.



**Xorazm viloyati bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o’sish sur’ati  
(2020-yilning yanvar-sentabr oylarida)**

<b>Shahar va tumanlar nomi</b>	<b>Mlrd. so‘m</b>	<b>Jamiga nisbatan ulushi, % da</b>	<b>2019-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, % da</b>
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>4312,1</b>	<b>100</b>	<b>100,1</b>
Urganch shahri	579,0	13,4	96,7
Xiva shahri	75,7	1,7	96,4
<i>shundan tumanlar,</i>			
Bog‘ot tumani	155,0	3,6	100,5
Gurlan tumani	99,2	2,3	73,7
Qo‘siko‘pir tumani	46,1	1,1	74,4
Urganch tumani	194,2	4,5	89,5
Hazorasp tumani	56,6	1,3	70,4
Tuproqqal’a tumani	2676,0	62,1	107,1
Xonqa tumani	166,8	3,9	100,2
Xiva tumani	58,8	1,4	61,3
Shovot tumani	92,8	2,1	100,2
Yangiariq tumani	63,9	1,5	86,7
Yangibozor tumani	48,0	1,1	88,0



Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat bo'yicha jami hajmidagi eng yuqori ulushi Tuproqqa'l'a tumaniga to'g'ri kelib, 62,1 % ni, shuningdek, Urganch shahri 13,4% ni, Urganch tumani 4,5 % ni, Xonqa tumani 3,9 % ni hamda Bog'ot tumani 3,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (100,1 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Tuproqqa'l'a tumanida (107,1 %) qayd etildi.



**Shahar va tumanlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari  
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati  
(2020-yilning yanvar-sentabr oylarida)**

<b>Shahar va tumanlar nomi</b>	<b>Mlrd. so‘m</b>	<b>Jamiga nisbatan ulushi, % da</b>	<b>2019-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, % da</b>
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>981,7</b>	<b>100</b>	<b>86,6</b>
Urganch shahri	359,8	36,7	90,5
Xiva shahri	33,6	3,4	91,2
<i>shundan tumanlar,</i>			
Bog‘ot tumani	75,7	7,7	112,6
Gurlan tumani	43,0	4,4	58,9
Qo‘shko‘pir tumani	24,9	2,5	65,1
Urganch tumani	123,5	12,6	94,0
Hazorasp tumani	32,6	3,3	66,8
Tuproqqa'l'a tumani	13,0	1,3	44,8
Xonqa tumani	114,4	11,7	95,8
Xiva tumani	34,0	3,5	69,6
Shovot tumani	63,3	6,4	102,9
Yangiariq tumani	33,4	3,4	85,5
Yangibozor tumani	30,6	3,1	72,5

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Urganch shahriga to‘g‘ri kelib, 36,7 %, shuningdek, Urganch tumani 12,6 % ni, Xonqa tumani 11,7 % ni, Bog‘ot tumani 7,7 % ni, Shovot tumani 6,4 % ni, Gurlan tumani 4,4 % ni hamda Xiva tumani 3,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida eng yuqori ko‘rsatkich Bog‘ot tumani (112,6 %), Shovot tumani (102,9 %) da kuzatildi.



**Shahar va tumanlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlari  
ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati  
(2020-yilning yanvar- sentabr oylarida)**

<b>Shahar va tumanlar nomi</b>	<b>Mlrd. so‘m</b>	<b>Jamiga nisbatan ulushi, % da</b>	<b>2019-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, % da</b>
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>3330,4</b>	<b>100,0</b>	<b>104,9</b>
Urganch shahri	219,2	6,6	108,9
Xiva shahri	42,1	1,3	101,0
<i>shundan tumanlar,</i>			
Bog‘ot tumani	79,3	2,4	91,2
Gurlan tumani	56,3	1,7	91,2
Qo‘shko‘pir tumani	21,1	0,6	89,5
Urganch tumani	70,6	2,1	82,6
Hazorasp tumani	24,0	0,7	75,9
Tuproqqal'a tumani	2663,0	80,0	107,9
Xonqa tumani	52,4	1,6	111,4
Xiva tumani	24,9	0,7	52,8
Shovot tumani	29,5	0,9	94,8
Yangiariq tumani	30,6	0,9	88,0
Yangibozor tumani	17,4	0,5	113,4

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Tuproqqa'l'a tumaniga to'g'ri kelib, 80,0 %, shuningdek, Urganch shahri 6,6 % ni, Bog'ot tumani 2,4 % ni, Urganch tumani 2,1 % ni, Gurlan tumani 1,7 % ni va Xonqa tumani 1,6 % ni tashkil etdi.


Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (106,9 %) darajasidan yuqori ko'rsatkichni Yangibozor tumani (113,4 %), Xonqa tumani (111,4 %), Urganch shahri (108,9 %), Tuproqqa'l'a tumani (107,9 %) va Xiva shahri (101,0 %) tashkil qildi.

### Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati (2019-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, % da)

Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish 2019-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan Tuproqqa'l'a tumanida (107,1 %), Bog'ot tumanida (100,5 %), Xonqa tumanida (100,2 %) va Shovot tumanida(100,2 %) sezilarli darajada o'sgan.

Qolgan barcha tumanlarda o'sish sur'ati 100 % dan kamayganini ko'rish mumkin.

Masalan, Urganch shahrida 96,7 %, Xiva shahrida 96,4 %, Urganch tumanida 89,5 %, Yangibozor tumanida 88,0 %, Yangiariq tumanida 86,7 %, Qo'shko'pir tumanida 74,4 %, Gurlan tumanida 73,7 %, Hazorasp tumanida 70,4 % va 61,3 % Xiva tumaniga to'g'ri keladi.





**Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari  
va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish  
(2020-yil yanvar- sentabr oylarida, ming so‘m)**


<b>Shahar va tumanlar nomi</b>	<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>2019-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, % da</b>	<b>Iste’mol mahsulotlari</b>	<b>2019-yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, % da</b>
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>3549,5</b>	<b>104,0</b>	<b>2299.4</b>	<b>98,5</b>
Urganch shahri	8596,0	92,9	4015,3	95,5
Xiva shahri	1158,9	105,7	817,7	95,0
<i>shundan tumanlar;</i>				
Bog‘ot tumani	1 312,9	99,2	941,0	98,8
Gurlan tumani	1 710,0	99,9	669,2	72,7
Qo‘siko‘pir tumani	672,2	106,3	267,4	73,2
Urganch tumani	1443,7	105,6	976,4	87,8
Hazorasp tumani	1021,0	127,5	292,1	89,1
Tuproqqa'l'a tumani	57643,8	0,0	48433,8	0,0
Xonqa tumani	1 642,8	88,8	894,7	98,7
Xiva tumani	1152,3	131,1	403,8	60,3
Shovot tumani	1206,9	117,9	545,7	98,6
Yangiariq tumani	1602,6	128,7	550,9	85,4
Yangibozor tumani	2161,8	148,0	550,1	86,7

Yuqoridagi tahliliy jadvalga asosan joriy yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish viloyat bo'yicha 3549,5 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 104,0 foizga o'sishi kuzatildi. Shahar va tumanlar kesimida tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, 2019-yil yanvar-sentabr oylarida Tuproqqa'l'a tumani 50388,7 ming so'mdan 2020-yil yanvar-sentabr oylarida 57643,8 ming so'mga, Yangibozor tumani 1085,5 ming so'mdan 2161,8 ming so'mga ,Yangiariq tumanida 1079,9 ming so'mdan 1602,6 ming so'mga, Gurlan tumani 1594,4 ming so'mdan 1710,0 ming so'mga, Bog'ot tumani 1166,5 ming so'mdan 1312,9 ming so'mga, Shovot tumani 1002,2 ming so'mdan 1206,9 ming so'mga oshganligi kuzatildi. Sanoati rivojlangan Tuproqqa'l'a tumanida (57643,8 ming so'm), Urganch shahrida (8596,0 ming so'm) aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (3549,4 ming so'm) yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi viloyat bo'yicha 2299,4 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 98,5 foizga o'sishi kuzatildi. Shahar va tumanlar kesimida tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, 2019-yil yanvar-sentabr oylarida Tuproqqa'l'a tumani 45976,1 ming so'mdan 2020 yil yanvar-sentabr oylarida 48433,8 ming so'mga o'sgani kuzatildi.



## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi (2020-yil yanvar-sentabr oylarida, % da)




Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Xiva shahri (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100 %), Xiva tumani (100 %), Urganch tumani (75,9 %), Bog'ot tumani (71,4 %), Gurlan tumani (62,7 %), Qo'shko'pir tumani (49,0 %)ni tashkil qildi.

Viloyatda yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1759,1 mldr.dollar sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 26,4 % ni tashkil etdi. Shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili Tuproqqa'l'a tumani (2,7 %), Yangibozor tumani (25,6 %), Shovot tumani (30,8), Yangiariq tumani (35,3 %), sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



## Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 785,0 mlrd.so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 11,8 % ni tashkil etdi.



## Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyatda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturi bo‘yicha 32 ta loyiha mavjud bo‘lib, ular tomonidan joriy yilning yanvar-sentabr oylarida 65,5 mlrd.so‘mlik import o‘rnini bosuvchi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Mazkur korxonalar tomonidan 356,5 ming (AQSH) dollarlik mahsulot eksport qilinib, 249 ta yangi ish o‘rinlari yaratilgan.

Dastur bo‘yicha shahar va tumanlar bo‘yicha tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, Gurlan tumanida 2 ta loyihada 0,4 mlrd.so‘mlik, Urganch tumanida 4 ta loyihada 7,0 mlrd.so‘mlik, Hazorasp tumanida 1 ta loyihada 3,4 mlrd.so‘mlik, Tuproqqa’ tumanida 4 ta loyihada 40,8 mlrd.so‘mlik, Yangiariq tumanida 4 ta loyihada 4,4 mlrd.so‘mlik, Urganch shahrida 14 ta loyihada 9,4 mlrd.so‘mlik va Xiva shahrida 2 ta loyihada 0,1 mlrd.so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan.



## XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

	2020-yil yanvar-sentabr	2019-yil yanvar-sentabr
Loyihalar soni, birlik	32	11
Korxonalar soni, birlik	23	8
Ishlab chiqarish hajmi, mlrd.so‘m	65,5	24,6
Eksport qilingan mahsulot hajmi mln AQSH dollar	0,4	0,0
Yaratilgan yangi ish o‘rinlari, birlik	249	0

Xorazm viloyati statistika  
boshqarmasi  
Sanoat statistikasi bo‘limi.  
Aloqa telefoni: (62) 224-64-99